



**НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС**

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС



Последние
новости

Последние
образование

Последние
исследование

И НОВЫЕ НАУКИ



Международный современный научно-практический журнал

Научный импульс

№ 5 (100)
Декабрь 2022 г.

Часть 1

Издается с августа 2022 года

Москва 2022

Председатель редколлегии:

Гуляева Елена Камаловна - Представитель технической поддержки

Редакционная коллегия:

Макаровский Руслан Сергеевич - Заведующий кафедрой организационного управления Института прикладного анализа поведения и психолого-социальных технологий, практикующий психолог, специалист в сфере управления образованием.

Арестова Инесса Юрьевна – канд. биол. наук, доц. кафедры биоэкологии и химии факультета естественнонаучного образования ФГБОУ ВО «Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я. Яковлева», Россия, г. Чебоксары;

Ахмеднабиев Расул Магомедович – канд. техн. наук, доц. кафедры строительных материалов Полтавского инженерно-строительного института, Украина, г. Полтава;

Бахарева Ольга Александровна – канд. юрид. наук, доц. кафедры гражданского процесса ФГБОУ ВО «Саратовская государственная юридическая академия», Россия, г. Саратов;

Бектанова Айгуль Карибаевна – канд. полит. наук, доц. кафедры философии Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина, Кыргызская Республика, г. Бишкек ;

Волков Владимир Петрович – канд. мед. наук, рецензент АНС «СибАК»;

Елисеев Дмитрий Викторович – канд. техн. наук, доцент, начальник методологического отдела ООО "Лаборатория институционального проектного инжиниринга";

Комарова Оксана Викторовна – канд. экон. наук, доц. доц. кафедры политической экономики ФГБОУ ВО "Уральский государственный экономический университет", Россия, г. Екатеринбург;

Лебедева Надежда Анатольевна – д-р филос. наук, проф. Международной кадровой академии, чл. Евразийской Академии Телевидения и Радио, Украина, г. Киев;

Маршалов Олег Викторович – канд. техн. наук, начальник учебного отдела филиала ФГАОУ ВО "Южно-Уральский государственный университет" (НИУ), Россия, г. Златоуст;

Орехова Татьяна Федоровна – д-р пед. наук, проф. ВАК, зав. Кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова», Россия, г. Магнитогорск; **Самойленко Ирина Сергеевна** – канд. экон. наук, доц. кафедры рекламы, связей с общественностью и дизайна Российского Экономического Университета им. Г.В. Плеханова, Россия, г. Москва ;

Сафонов Максим Анатольевич – д-р биол. наук, доц., зав. кафедрой общей биологии, экологии и методики обучения биологии ФГБОУ ВО "Оренбургский государственный педагогический университет", Россия, г. Оренбург;

Милютин Николай Даминович – Доктор юридических наук;

Сергеев Анатолин Викторович – Кандидат биологических наук.

Научный импульс: научный журнал. – № 5(100). Часть 1. М., Изд. «МЦНО», 2022.

Журнал «Научный импульс» освещает сферу духовно-просветительского мышления человека, общественно-политическую жизнь человека, институты гражданского общества, глобальные проблемы, проблемы образования, новые технологии, производимые сегодня, реформирование системы образования и публикуются научные статьи, посвященные открытому научно-популярному анализу.

Matyoqubova Mavluda Shonazarovna	
BOLALARDA JARROHLIK AMALIYOTLARIDAN SO'NG QORIN PARDA BITISHMA KASALLIKLARIGA MOYILLIKNI O'RGANISH E.A Berdiev Marjona Sa'dullayeva Umida Raxmonqulova	146
"PEDAGOGIK DESANTURA" Sh.N.Ibadullayeva O'.Y.Axmadaliyeva	151
O'ZBEKISTONDA INKLUIZIV TA'LIM Sh.N.Ibadullayeva Sh.F.Xabibullayeva R.S.Otajonova	154
IMPORTANCE OF MEDICAL TECHNOLOGY IN MEDICAL PRACTICE Hamidova Dilduza Ilxomovna Husratova Shaxina Jalol qizi Ravshanova Gulrux Jamshid qizi	158
INKLUIZIV TA'LIMNING MOHIYATI Sh.N.Ibadullayeva M.O'.Nuriddinova	161
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISH SHAROITLARIDA AMALIY TELEVISION UZATISHLARNING QO'LLANILISH SOHALARINI TAHLILI Q.E.Mamatqulov I.A. Maxmudov	165
FACTORS AFFECTING THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF FOREIGN BORROWINGS IN ENGLISH LANGUAGE Matluba Olimova Tuklieva G.N	168
FIZIOTERAPIYANING INSON SALOMATLIGINI TIKLASHDAGI AHAMIYATI Yangiboyeva Dilduza Yangiboyevna	171
TABIATNI MUHOFAZA QILISH – EKOLOGIK MUAMMOLARNING OLDINI OLISHNING ENG SAMARALI USULIDIR Azizova Mehrinsa Akramjon qizi	175
HOZIRGI DAVRDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI Azizova Mehrinsa Akramjon qizi	179
ASSESSMENT OF THE SEISMIC RESISTANCE OF BUILDINGS AND STRUCTURES AND METHODS OF CREATING ELECTRONIC TECHNICAL PASSPORTS Yuldoshev Shakhboz Khoshimjon Mashrapov Khahramon Olimjonovich Hasanboyev Ibrahim	182
BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	186

O'ZBEKISTONDA INKLUYZIV TA'LIM

Sh.N.Ibadullayeva

Ch.D.P.U.Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Sh.F.Xabibullayeva

Surdopedagogika yo'nalaishi talabasi

R.S.Otajonova

Surdopedagogika yo'nalaishi talabasi

Tayanch tushunchalar: *Inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, maktab, imkoniyati cheklangan, nuqson, koreksiya, kompensatsiya, tamoyil, tabiiy psixologo-pedagogika, nogironlik, defektolog.*

Inklyuziv ta'lim – alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan, barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazarida tutuvchi umumta'limni rivojlantirish jarayoni. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom ya'ni sog'lig'i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Bunday holda, ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan intellectual, jismoniy va aqliy xususiyatlariga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga ehtiyoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarini oladigan tarzda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. O'rgatish va asboblarni maxsus bolalarga moslashtirilgan bo'lishi kerak va boshqa talabalar, o'quvchilar har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunishlari, qabul qilishlari kerak. Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining farqlarini hisobga oladigan va ularning barchasini, minimal darajadagi ta'lim darajasiga erishish uchun zarur bo'lgan yordam bilan ta'minlashga harakat qiladigan tizimni chinakam adolatli tizim deb hisoblaydi. Shu tarzda bu tenglikka erishishga qaratilgan moslashuvchan ta'lim modeli.

1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Nogiron bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, koreksiyalash, kompesatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega bo'lish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqqiyosida bo'lib, qishloqdagi hududlarda hali hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi taminlanishi lozim. Inklyuziv ta'lim tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) xalq ta'lim bo'limlari tomonidan tibbiy psixologo-pedagogik komissisiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman, tibbiy psixologo-pedagogik komissisiyalar to'g'risidagi" nizom asosida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori qabul qilindi.

Hujat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- 2020-2025-yillarga xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari).

Konsepsiya 2 bosqichda amalga oshiriladi.

2021-2022 o'quv yilida:

- tajriba-sinov tariqasida shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilinadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umum ta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochiladi;

- Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlarini tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish bo'yicha ijobiy tajriba Respublikaning boshqa hududlariga bosqichma–bosqich tatbiq etiladi.

UNISEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga inklyuziv tamoyil imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qinalayotgan bo'lsa o'qish va yozishga o'rganish uchun mahsus yordamga ega bo'lishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Yutuqlari:

- UNISEF xalq ta'limi vazirligining “Defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi” nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi.

- UNISEF ning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha “ besh yillik ish rejasi “ ta'lim bo'yicha besh yillik ish rejasiga kiritilishini taminlaydi.

- Ta'limga inklyuziya jamiyatga qo'shilish sharti sifatida “Aloqida ehtiyojli bolalarni o'qitish mamalakat oldidagi assosiy vazifalardan biridir. Bu har bir kishi o'z harakatlarining ishtiroki va dolzarbligini his qilishi mumkin bo'lgan chinakam inklyuziv jamiyatni yaratish uchun zarur shartdir. Biz har bir bolaga ,ularning ehtiyojlari yoki boshqa sharoitlaridan qat'iy nazar, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, jamiyatga hissa qo'shish va uning to'liq azosi bo'lish imkoniyatini berishga majburmiz”,-deb ta'kidlagan Devid Blankton.

ADABIYOTLAR:

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.

2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.

3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.

4. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'lim klasteri sharoitida erta inklyuziyaga erishish ko'zlear implantli bolalar ijtimoiylashuvining eng optimal omili. Yangi O'zbekistonda xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, 1(1), 55-65.

5. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'limda tolerantlikka erishish kelajak o'qituvchisini inklyuziv ta'limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaviy maktabda va jamiyat aloqadorli, 1(1), 61-65.

6. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 35-70.

7. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertatsiya 2022 y.